

Bekobod shahar
3-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Xoljigitova Jumagulning
matematika fanidan
OCHIQ DARS ISHLANMASI

Mavzu: O'tilganlarni mustahkamlash.

1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni o'tilganlar yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash.

2. Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, mavzu doirasida bilimli qilib tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Og'zaki hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: Mustahkamlovchi, takrorlash.

Dars metodi: suhbat, tushuntirish, ko'rgazmalilik.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, didaktik o'yinlar, slaydlar.

Kutilayotgan natija: Mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga, to'g'ri hisoblashga, faol ishtirok etishga undash. Ularni mustaqil ishlashga o'rganishini ta'minlash.

Darsning borishi:

1. O'quvchilarni darsga tayyorgarligini kuzatish.

2. Fasllar haqida suhbat va guruhlariga bo'linish.

- a) fasl nomlarini rus, ingliz tilida aytirish
- b) hozir o'lkamizda qanday fasl?
- c) guruhlariga nom topish

831-LA

544-O

111-SOG'

641-M

221-L

784-BO

732-R

441-JAK

241-LA

641-LA

804-I

165- KE

527-YOSH

733-QI

621-RAQ

241-MI

541-TA

441-YAT


824-YO

105-JA

925- TI


So'ngra guruhlarni yozgan sonlari o'qitiladi. Guruh shiori tinglanadi.

- Bolalar sizlar bilan "Do'stona kelishuv" ni amalgam oshiramiz.
Bunda:



3. O'tilgan mavzuni so'rash va uy ishini tekshirish.

- Qani uchburchaklar necha turga bo'linadi?
- Guruhlarga topshiriq.



1-guruh teng tomonli uchburchakni raqamini yozib, qoidasiga tayyorlansin.

2-guruh teng yonli uchburchakni toping, qoidasini ayting.

3-guruh turli tomonli uchburchakni topib, qoidaga tayyorlansin.

4. Darslik bilan ishlash.

440-misol. Xor bo'lib aytiladi.

441-misol. (har bir guruhga beriladi).

Tenglamadagi x noma'lum qo'shiluvchini, kamayuvchini, ayiruvchini topish uchun bajarilgan ish izohlanadi guruhlar rag'batlantirib boriladi.

5. Dam olish daqiqasi.

6. Matematik topishmoq.

Hayvonning nomi	4 ta oyoq	4 ta tuyog	Manzilga yetkazar	Temir mixli oyoq
Eshak				
Kiyik				
Sigir				
Ot				

*To'rtidir uning oyog'i,
Toshdan qattiq tuyog'i.
Mnzilga yetishtirar,
Temir mixli oyog'i.*

7. O'rmondan bizni sinfga bilimingizni sinash uchun hayvonlar mehmonga kelishdi. Ular o'zlari bilan bizni darsligimizda masala 1 ta bo'lgani uchun qolgan guruhlariga ham olib kelishdi. Agar biz shu masalalarni bajara olsak o'z guruhimizga yana rag'bat olib berasiz.

8. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

a) iqtidorli o'quvchilarga 443-444 misollarini beraman

b) guruhlar o'rtasida xotira mashqi.

I-guruh: 30, 27, 45, 66, 925, 77

II-guruh: 62, 29, 85, 57, 48, 97

III-guruh: 24, 18, 9, 32, 59, 75.

d) amaliy va nazariy topshiriqlar.

1 ta guruh Quvnoq sonlardan 3 xonali sonlarni yozadi.

2 ta guruh didaktik material bilan ishlaydi uy va paraxod yasaydi, uning uchun ko'paytirish va bo'lishni bajarish kerak.



So'ngra kasblar haqida ham suhbat tashkil etiladi.

9. Dars yakuni:

1. Bugun darsda nimalarni o'rgandingiz?
2. Qaysi topshiriqni bajarayotganda qiynaladingiz?
3. Bugungi dars sizga yoqdimi?
4. Guruhlarni rag'batlantirish kartchkalarini olib hisoblash va natijani e'lon qilish.

10. Uyga vazifa: 445-446-m/m tushuntirish.

